

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARINI EKOLOGIK TARBIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MOHIYATI.

Nasriddinova Hamida

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchi yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish, bolalarda jonli va jonsiz tabiat haqida tushunchalarni rivojlantirish, axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning o'ziga xosligi bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik tuyg'u, ekologik idrok, ekologik tasavvur, ekologik ong, ekologik bilim, ma'lumot, ko'nikma, odatlar, ekologik madaniyat.*

Ekologik xavfsizlik muammosi nafaqat milliy va mintaqaviy, balki butun insoniyatning umumbashariy muammosidir. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, rivojlanishning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir. Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy «Bolalarga jonim fido» asarida «Men bolalar «Alifbo»sini ochib, birinchi so'zni hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob – tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim» - deb ta'kidlaganidek, bu borada barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50-moddasida: «Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar» va 55- moddasida esa: «Yer va er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umumiy boyliklardir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat mudofaasidadir» - deb juda o'rinli ta'kidlangan. Fuqarolarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb mavzusiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'xis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi» ning ishlab chiqilishi, «Ekosan» jamg'armasining tuzilishi va 2000 yilning «Sog'lom avlod yili» va 2005 yilning «Sihat-salomatlik yili» deb e'lon qilinib, davlat dasturi ishlab chiqilishi ekologik tarbiyaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilganligidan dalolat beradi. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik ijtimoiy muammolar ham tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, aholini yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo ijtimoiy muammolariga aylanib bormoqda. Yer kurrasida insonning farovon yashashi endi ekologik muammolarni yechishga bog'liq bo'lib qolmoqda.

So'ngi yillarda dunyo bo'yicha ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida juida kattaXususan, Respublikamizda ekologik muammolarni bartaraf etish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, barcha aholida ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida ekologik ta'limtarbiyani uzluksiz ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qarash va ta'lim tizimi jarayoniga keng joriy etishning ya'ni barcha ta'lim turlarida ekologiya fanini

o'qitishning muhimligini anglatish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan —O'zbekiston Respublikasining Ekologik ta'limni rivojlantirish Kontseptsiyasi ishlab chiqildi (Mirziyoev, 2019). O'zbekiston Respublikasining ekologik ta'limtizimini rivojlantirish kontseptsiyasiga ko'ra, o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong, madaniyat va tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish hamda ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli va samarali tashkil etish, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirish asosiy maqsad etib qabul qilingan ishlar amalga oshirilmoqda.

Boshlangich ta'lim yo'nalishida ish yuritayotgan pedagoglar o'quv rejasida Boshlangich sinf o'quvchilarini ekologik bilim va madaniyatini rivojlantirish nomli mavzu bo'lib, bunda asosan ekologik ta'lim-tarbiya nazariyasi haqida ma'lumotlar beriladi. Mavzuni o'tish jarayonida «O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI —QIZIL KITABI o'quvchilarga ekologiya, insonning tabiatga ta'siri unga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar haqida ma'lumotlar berish, tabiat va insonning o'zaro bog'liqligi haqida ularning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish masalalari mujassam etgan. «Tabiat va inson — bir butun» va «O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi» mavzulari boshidagi quyidagi savollar asosida o'quvchilar bilan suhbatlashiladi: Uylar quriladigan yog'ochlar qayerdan olinadi? Uyimizda yoqiladigan tabiiy gaz, mashinalarga quyiladigan benzinlarchi? — Ko'chalardagi mashinalardan chiqayotgan benzin qoldiqlari (tutun) biz nafas olayotgan havoga qanday ta'sir ko'rsatadi? Yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarga ekologiya nima ekanligi, insonning tabiatga ta'siri, «O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi», unga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar haqida batafsil so'zlab beriladi. Ekologik madaniyatni yoshlar ongiga singdirish uchun mamlakatimiz tabiatini hayvon va o'simliklarni muhofaza qilish, suvlarni ifloslantirmaslik, qushlarga ziyon yetkazmaslik, eng muhimi, ona zaminni bezavol asrashning aniq tuzilgan rejasi bo'lishi lozim. Ekologiyaga oid hadislardan namunalar keltirilgan holda dars mashg'ulotini tashkil qilish; Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan payitda, behosdan qiyomat- qoim bo'lishi aniq bo'lsa ham ulgursangiz uni ekib qo'ying. Kishilarga soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan do'zahga tashlanadi. Qaysi bir musulmon ekin eksa, yoki biror daraxt o'tkaza, so'ng uning mevasidan qush yoki hayvon yesa, uning ekanidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi. Islomda ichimlik suvi bilan ekin sug'orish man etilgan. Vatanni sevish — tabiatni sevishdan boshlanadi, binobarin, yoshlarda go'zallikka nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg'usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Holbuki, tabiat va uning mahsullari inson uchun ekan, ulardan oqilona foydalanish kerak. Yerga, suvga, hayvon va o'simliklarga bo'lgan munosabaimizni tiklashimiz orqaligina Ona tabiatimizni saqlab qolishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik savodxonlik va madaniyat ta'lim-tarbiya muassasalari va oilada amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda milliy xususiyat va tomonlarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bular: suv, yer, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Ota-bobolarimiz: «Suv – tabiat in'omi, hayot manbai», - deb bejiz aytishmagan. Maktabda o'quvchilarni ekologik tarbiyalashda bunday ma'lumotlarni berib borish o'qituvchilarning asosiy vazifasi bo'lmog'i darkor. Atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi ma'lum. Inson bilan

tabiat o'rtasidagi muammolarni yechish zaruriyati tug'ildi. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish pedagogika nazariyasi va amaliyotida dolzarb muammoga aylandi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishish zarur. Ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya berish mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: -atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri; -tabiat va uning ahamiyatini anglash; -tabiatga muhabbatni shakllantirishda maktab va oilaning hamkorligi; -o'z tumani, shaharini, qishloq va maktab hovlisini ko'kalamzorlashtirishda, hatto sinf xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqtirish; -oiladagi, maktabdagi tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish; -yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish. «Avesto»da kishilarni ekologik tarbiyalash bo'yicha quyidagi tadbirlar belgilangan: "Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir. Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish jazosiga mahkumdir. Ota-bobolarimiz azalazaldan tabiatga yuksak mehr ko'rsatishgan. Yurtni obod etishgan, ko'chalarni, hovlilarni sarishta qilishgan." Bundan ko'rinadiki, azaldan tabiatga munosabat milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashib ketgan. Maktab o'quvchilari ekologik tarbiya jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur: -tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish; -tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish; -atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlash; -tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish.

Umuman, maktab o'quvchilarining ekologik ta'lim-tarbiyasi quyidagi tuzilish va tizimda olib borilsa, uning samaradorligi ta'minlanadi: ekologik his-tuyg'u, ekologik idrok, ekologik tasavvur, ekologik tushuncha, ekologik bilim, ma'lumot, ko'nikma, malaka, odat, ekologik madaniyat (mahorat) va hokazo. Tabiatni muhofaza qilish hozirgi zamonning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolganligi o'quvchi ongiga singdiriladi. Haqiqatdan ham, tabiiy boyliklardan haddan tashqari ko'p darajada foydalanish, yangi yerlarni rejasiz o'zlashtirish oqibatida, ekologik muvozanat keskin o'zgardi, atrof-muhit ifloslandi. Ekologik tarbiyada insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatlari tarbiyalanib, o'quvchilar ongiga yoshligidan singdirib boriladi. Ekologik ta'lim-tarbiya maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nuritdinova M. —Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi|| Toshkent, 2005 yil
2. D. Sharipova, D. Xodiyeva, M. Shirinov —Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi|| Darslik. —Barkamol fayz medial|| nashriyoti, Toshkent, 2018 yil-458b. 3. Sh.Mirzaxmatova, D. Pulatova. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta'lim (Uslubiy qo'llanma) -T.: —Yangi asr avlodil, 2011-yil. - 44 b.

4. A. Bahromov, Sh. Sharipov, M. Nabiyeva Tabiatshunoslik. Umumiy o_rta ta'lim maktablari uchun darslik. - «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2020-120b.

5. Mamashokirov S. «Ekologik barkarorlik omillari» Tafakkur jurnali, 2005 yil, 1- son.

6. Falsafa tarixi. T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati, - 139 b.

7. Тошева Д. И., Жамолова Г. К. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 19. – С. 46-51.

8. Тошева Д. И., Очилова М. О. Методология Ходжа Бахоуддина Накшбанда и ее социальное-педагогическая сущность //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-4 (91). – С. 17-18.